

## MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

**Ikromov Elyor Ibodulloevich**

*Osiyo xalqaro universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasida o'qituvchisi*

### ARTICLE INFO.

**Kalit so'zlar:** Tadbirkorlik, kichik biznes, yalpi ichki mahsulot, byudjet, kichik va o'rta tadbirkorlik, soliq stavkalari, raqamli iqtisodiyot, kredit, subsidiya, litsenziya, ko'chmas mulk, resurus, kompaniya, tijorat bank.

### Annotatsiya

Ushbu maqolada Inson faoliyati turlicha bo'lib, turli xil yo'nalishga qaratilgan. Ularning ichida tadbirkorlik faoliyati alohida o'rin tutadi. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotda tadbirkorlik qobiliyati iqtisodiy resurs hisoblanadi va albatta kerakli shart-sharoitlar bilan ta'minlanishni taqozo etadi. Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlar davomida, ayniqsa, uning hozirgi bosqichida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, unga keng erkinlik berishga, uning rivojlanishiga to'siq bo'ladigan har qanday g'ov va cheklovlarni bartaraf qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Aholini kambag'allikdan chiqarishga keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Davlatimiz siyosatida inson manfaatlari, ijtimoiy adolat tamoyillari ustuvor. Shu boisdan ham aholining muayyan qatlami o'rtasida kambag'allik borligi tan olinib, uni qisqartirish bo'yicha alohida tizim joriy qilindi. Bunga qo'shimcha, joriy yil boshida barcha tumanlar sharoitiga ko'ra 5 ta toifaga ajratilib, tabaqalashgan yengilliklar berildi. Bularning natijasida o'tgan yili 1 million nafar, bu yil birinchi chorakda 210 Ming aholi kambag'allikdan chiqarildi.

Har yili oilaviy tadbirkorlikka 13 trillion so'm kredit va 1 trillion 500 milliard so'm subsidiyalar ajratilayapti. "Ijtimoiy himoya reyestri" orqali 2 million 300 ming muhtoj oila, xotin-qizlar, yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan vatandoshlarimiz moddiy yordam bilan qamrab olindi.

Lekin, bu natijalar hali yetarli emas. Kambag'allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, kasbga tayyorlash va ish o'rinlarini ko'paytirishga qaratilgan kompleks vazifadir.

Oxirgi besh yilda yurtimizda tadbirkorlar soni 285 mingdan 590 mingtaga ko'paydi. Bu – bitta tumanda 2,5 mingdan ortiq yoki bir mahallada 50 nafardan tadbirkorlar sinfi shakllandi, degani. Agar davlat bu tadbirkorlar bilan manfaatli hamkorlik qilib, ularni qo'llab-quvvatlasa, joylarda ijtimoiy muammolar va bandlikni hal qilish imkoniyati ortadi.

Masalan, aholini kasb-hunarga o'qitish uchun har yili davlat tomonidan 200 milliard so'm ajratilayapti. Lekin bu mablag'lar tadbirkor bilan bog'lanmagan. Xuddi shunday, tadbirkor ham yiliga katta xarajat qilib, o'zi uchun minglab mutaxassis tayyorlashga majbur. Lekin, bunda davlat qo'llab-quvvatlovi yo'q.

– Buning birdan-bir to'g'ri yechimi – tadbirkorga sharoit yaratib, ular bilan manfaatli hamkorlik qilish. Bu orqali ham bandlikni ta'minlaymiz, ham malakali mutaxassis tayyorlaymiz, – dedi Shavkat

Mirziyoyev.

Shu maqsadda 1 iyundan boshlab “20 ming tadbirkor – 500 ming malakali mutaxassis” dasturi amalga oshirilishi ma’lum qilindi. Unda ishtirok etish ixtiyoriy bo’ladi. Dasturga 2023-2024-yilda jami 1 milliard dollar ajratiladi. Bu mablag’lar hisobidan tadbirkorga kambag’al oilalar a’zosini kasbga o’qitib, ishli qilishiga qarab, amaldagidan past foizlarda va uzoqroq muddatga kredit beriladi. Tadbirkorning “amaliy monomarkaz” tashkil qilish va jihozlash hamda kasbga o’qitish xarajatlari to’liq qoplab beriladi.

Dasturda ishtirok etadigan tadbirkorlarga soliqlardan alohida imtiyozlar beriladi. Jumladan, kamida 20 foiz kambag’al oila a’zosini bir yil davomida ish bilan ta’minlasa, mol-mulk va yer soliqlaridan ozod qilinadi. 5 million so’mgacha ish haqi to’layotgan tadbirkorlarga ijtimoiy soliq stavkasi 2 baravar kamaytiriladi. Kambag’al oila a’zosi ham daromad solig’idan ozod qilinadi.

Shuningdek, soliq va bojxona ma’urchiligida ham yengilliklar nazarda tutilmoqda. Xususan, bunday tadbirkorlar faoliyatida soliq tekshiruvlari o’tkazilmaydi. Ularga qo’shilgan qiymat solig’i hamda ortiqcha to’langan soliqlar tekshiruvsiz qaytarib beriladi. Barcha soliqlardan qarzdorlikni bir yilgacha kechiktirib to’lash imkoni beriladi. Bojxona rasmiylashtiruvda “yashil yo’lak” tartibi qo’llaniladi.

Dasturga kirgan tadbirkorlarga infratuzilma, yer va bino-inshootlar bilan ta’minlashda qo’shimcha yengilliklar beriladi. Masalan, tadbirkor so’ragan yer va bino-inshootlarni auksionga chiqarish masalasi hal qilib beriladi. Ularni xususiylashtirishda bo’lib to’lash imkoniyati yaratiladi. Qiymati 50 milliard so’mdan yuqori loyihalar bo’yicha infratuzilma xarajatlari to’liq qoplab beriladi.

Ma’lumki, kambag’allikni qisqartirish bo’yicha Xitoyda tajriba katta. Ushbu tajriba asosida har bir viloyatda kambag’allikdan chiqarish bo’yicha alohida dastur amalga oshirilishi belgilandi. Bunda, kambag’allik yuqori bo’lgan tumanlarda yo’l-transport, elektr, aloqa va turizm infratuzilmasini yaxshilash, kichik va o’rta shaharlarni rivojlantirish, mahallalarni sanoatlashtirishga e’tibor qaratiladi. Endi har yili tasdiqlanadigan davlat investitsiya dasturlari ham shu asosda shakllantiriladigan qilib belgilandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aholini turmush tarzini yaxshilash borasida qilinadigan ishlarni rivojlantirib ish bilan band bo’lmagan aholini ish bilan ta’minlagan tadbirkorlarga soliq imtiyozlarini ko’paytirib, ularga yangidan yangi imkoniyatlarni ochib berish kerak.

Kichik erkin iqtisodiy zonalarni hududini yanada kengaytirish kerakligi k’rinib turibdi. Har bir tumanda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etib investitsiya olib kirgan korxonalariga soliq sohasida imtiyozlarni muddatini uzaytirish zarurligi ko’rinib turibdi.

Tashkil etilgan har bir yangi korxonalar xalqimizni ish bilan ta’minlashi aniq va zarur. Imtiyozlarni ishchi soniga qarab belgilash maqsadga muvofiqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.**

1. Malikov T.S, Olimjonov O.O Moliya darslik-T "Iqtisod-moliya", 2019 125 b.
2. Vahobov.A.V, Jo’rayev.A.S. Soliq va soliqqa tortish. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2018.-408 b.
3. E.Gadoev, N.Kuzieva. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Oliy o’quv yurtlari talabalari uchun darslik. TDIU, Iqtisodiyot. 2019 y. 430 b
4. Ikromov, E. . (2023). PROBLEMS IN IMPROVING THE FORECASTING OF LOCAL BUDGET REVENUES. *Modern Science and Research*, 2(10), 794–797.
5. Abdulloev, A. J., & Rakhmankulova, N. O. THEORETICAL ASPECTS OF THE INNOVATIVE ENTREPRENEURSHIP CONCEPT.
6. Орипов, М. А., Аминова, Н. Б., & Рахманкулова, Н. О. (2020). Экологически чистое и

устойчивое управление цепочками поставок в экономике платформы. Вестник науки и образования, (13-2 (91)), 28-30.

7. Явмутов, Д. Ш., & Рахманкулова, Н. О. (2021). КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ РАСЧЕТА ПРОДУКЦИИ В ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ. ITIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 1(2), 12-17.
8. Alisher Khudoynazarovich Shadiyev. (2023). FUNCTIONS, METHODS, MANAGEMENT DECISIONS AND SOCIAL FACTORS OF EDUCATIONAL MANAGEMENT. American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157), 1(9), 87–93.
9. Shadiyev, A. (2022). EXPERIENCE IN THE DEVELOPMENT OF SINGAPORE TOURISM IN UZBEKISTAN. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 23(23).
10. Shadiyev, A. K. (2021). Development and organization catering service in hospitality. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 381-387.
11. Bazarova, M. (2023). EFFECTIVENESS OF USING PR-ADVERTISING SERVICES IN THE PROCESS OF PRODUCT DELIVERY ON THE EXAMPLE OF BUKHARA REGION. Modern Science and Research, 2(10), 798–804.
12. Supieвна, B. M. (2023). USING EFFECTIVE WAYS OF CONDUCTING MARKETING RESEARCH IN INTERNATIONAL COMPANIES. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 624-629.
13. Bakhodirovich, K. B. (2023). International accounting models and their characteristics in the conditions of innovative economy. Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 21, 56-60.
14. Bakhodirovich, K. B. (2023). CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF IMPROVING ACCOUNTING IN SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP. IMRAS, 6(6), 161-165.
15. To'rayevna, S. N. . . (2023). Biznes Sohasida Xodimlarni Topish Va Tanlash Bosqichlari. Miasto Przyszłości, 41, 184–190.
16. Sodiqova, N. (2023). DIGITAL LABOR IN THE NEW ECONOMY. Modern Science and Research, 2(10), 293–300.
17. Toshov, M. (2023). PERSONNEL MANAGEMENT AND THEIR EVALUATION IN MANAGEMENT. Modern Science and Research, 2(10), 535–541.
18. Akbarovna, N. N. (2023). RAQAMLI IQTISODIYOTDA MOLIYA VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING ORNI. Gospodarka i Innowacje., 41, 446-449.
19. Hakimovich, T. M. (2023). IQTISODIYOTDA MENEJMENTNING AHAMIYATI. Gospodarka i Innowacje. 41, 84-87.
20. Bahromjon, X., & Nargiza, N. . (2023). THE PROCEDURE FOR DRAWING UP FINANCIAL STATEMENTS IN JOINT-STOCK COMPANIES ON THE BASIS OF INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS. Modern Science and Research, 2(10), 805–811.
21. Алимова Ш. А., Ниёзова И. Н. Бизнес-коммуникации в системе управления промышленных структур //Academy,(1 (64)). – 2021. – С. 55-57.
22. Alimova S. O. FEATURES OF THE STRATEGIC MANAGEMENT SYSTEM OF INDUSTRIAL ENTERPRISES.
23. Jumaeva, Z. Q. "REGIONAL FEATURES OF INVESTMENT POLICY OF UZBEKISTAN." Central Asian Problems of Modern Science and Education 2020.1 (2020): 48-55.

24. Bustonovna, D. Z. (2023). DIGITAL TECHNOLOGIES IN SHAPING THE E-COMMERCE ENVIRONMENT. *Gospodarka i Innowacje*. 41, 316-320.
25. Jumayeva, Z. (2023). THEORY OF MARKET EQUILIBRIUM, SUPPLY AND DEMAND. *Modern Science and Research*, 2(10), 740–743.

Internet saytlari

1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
2. [www.mf.uz](http://www.mf.uz)
3. [www.soliq.uz](http://www.soliq.uz)